



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



AHOLINI ISH BILAN BANDLIK VA ISHSIZLIK HOLATI TAHLILI

Saidov Nurali Raximovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Inson resurslarini boshqarish” kafedrasi katta o’qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a18

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublika miqyosida aholining ish bilan bandlik va ishsizlik holati tahlili yoritilgan. Tahlillar natijasidan kelib chiqqan holda ishsizlikni kamaytirish va ish bilan bandlik darajasini oshirishga oid takliflar berilgan.

Tayanch iboralar: mehnat bozori, mehnat resurslari, ish bilan bandlik, ishsizlik

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ЗАНЯТОСТИ И БЕЗРАБОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Саидов Нурали Рахимович

ТГЭУ, Кафедра "Управление человеческими ресурсами"

Старший преподаватель

Аннотация: В данной статье проводится анализ занятости и безработицы населения в масштабах республики. По результатам анализа внесены предложения по снижению безработицы и повышению уровня занятости населения.

Ключевые слова: рынок труда, трудовые ресурсы, занятость, безработица.

ANALYSIS OF THE STATE OF EMPLOYMENT AND UNEMPLOYMENT OF THE POPULATION

Saidov Nurali Rakhimovich

TSUE, “Human resources management” department

Senior teacher

Abstract: This article covers the analysis of employment and unemployment of the population on the scale of the Republic. Based on the results of the analysis, proposals were made to reduce unemployment and increase the level of employment

Key words: labor market, labor resources, employment, unemployment.

Kirish

Aholini ish bilan ta'minlash va buning uchun ish o'rinlari sonini oshirish respublikamizda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot, yalpi ichki mahsulotning o'sishi, aholining turmush tarzi va daromadlarini oshirishda aholining ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi.

Ish bilan bandlik darajasini oshishi ijtimoiy barqarorlik va faravonlikning oshishiga olib keladi. Ishsizlikning oshishi esa aholida daromadning uzilib qolishi, uy-joy, oziq-ovqat va sog'liqni saqlash kabi asosiy ehtiyojlarni qondirishni qiyinlashtiradi. Bu kambag'allikning oshishi va umumiy iqtisodiy faravonlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli ham ish bilan bandlik va ishsizlik holatlarini doimiy tahlil qilib borish zarur. Ushbu tahlillar mehnat bozori muammolarini hal qilish uchun tegishli strategiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, ish bilan bandlik va ishsizlikni tahlil qilish mehnat bozorida talab qilinadigan malakalarni aniqlashga yordam beradi. Ya'ni bunday tahlil ta'lim muassasalari uchun o'z dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, malaka va ish bilan ta'minlash imkoniyatlari o'rtasidagi yaxshi muvofiqlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Dunyo mamlakatlarida kompaniyalar inson resurslarini rejalashtirish, kengaytirish va investitsiyalar bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun ish bilan bandlik va ishsizlik ma'lumotlariga tayanadi.

Mehnat bozori sharoitlarini tushunish korxonalarga o'z mahsulotlari yoki xizmatlariga bo'lgan talabni baholashga va o'z faoliyatini mos ravishda moslashtirishga yordam beradi. Shu sababli doimiy ravishda ish bilan bandlik ishsizlikni tahlil qilib borish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ish bilan bandlik va ishsizlik bo'yicha bir nechta iqtisodchi olimlar o'z fikr va mulohazalarini bildirishgan.

Akademik Q.X.Abdurahmonovning tarifiga ko'ra ishsizlik – ijtimoiy-iqtisodiy voqea hisoblanib, iqtisodiy faol, mehnat qilishga layoqatli va mehnat qilishni xohlaydigan aholi muayyan qismining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda ish bilan band bo'lmasligidir [1]

Ish bilan bandlik - bu fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish qonunga zid bo'lmagan faoliyati va mehnat daromadi hisoblanadi. [2]

S.Qurbonovning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra: “Unumli bandlik – qaramog'ida bir va undan ortiq shaxslar bo'lgan, o'zi hamda qaramog'idagilarning har biri uchun belgilangan kambag'allik chegarasidan yuqori darajadagi iste'moli uchun yetarli daromad keltiradigan mehnat faoliyatidir.”[3]

Tadqiqotchi olimlardan Y.Hyerman, R.Islam va A.Fosu o'z ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot uchun haqiqiy muammo ularning iqtisodiy o'sish jarayonida bandlik o'sishini ta'minlash qobiliyatining cheklanganligidir, deb ta'kidlashgan [4]

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqsadga erishish uchun statistik ma'lumotlarni to'plash va taqqoslash usullaridan, olingan natijalarni umumlashtirish va asoslashda tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar maqolaning tahlil va natijalar qismida qo'llanilib, quyida xulosa qilishimizga yordam bergan.

Tahlil va natijalar

Ish bilan bandlikni iqtisodiyotning quyidagi:

- qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi;
- sanoat;
- qurilish;
- ulgurji va chakana savdo;
- tashish va saqlash;
- yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar;
- axborot va aloqa;
- moliyaviy va sug'urta faoliyati;
- ko'chmas mulk bilan operatsiyalar;
- professional, ilmiy va texnik faoliyat
- ta'lim;
- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;
- san'at, ko'ngil ochish va dam olish kabi tarmoqlariga bo'lib o'rganish va

tahlil qilish aniq va manzilli natijalarni aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tahlil uchun so'ngi kamida 5 yillik ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, aniqlik darajasini oshirishda hududlar kesimida, demografik jihatdan yoshi, gender jihatdan ayollar va erkaklarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. (1-jadval)

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Respublikada jami ish bilan bandlar soni 2017-yilda 13520,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa 2022-yilga kelib bu holat 13737,3 ming nafarni tashkil etgan. 2022-yilda iqtisodiyot tarmog'ining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida jami bandlar 3429,6 ming nafar va 25% ulushni, sanoatda ish bilan bandlar 1823,0 ming nafar va 13,2% ulushni, qurilishda ish bilan bandlar 1325,9 ming nafar va 9,6% ulushni, ulgurji va chakana savdo esa 1543,5 ming nafar va 11,2%ni, tashish va saqlashda 635,4 ming nafarni va 4,6%ni, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 351,3 nafarni va 2,5%ni, axborot va aloqa 79,0 ming nafar va 0,5%dan kam ulushni, ta'limda esa 1244,6 ming nafar va 9%ni, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 663,6 ming nafarni va 4,8%ni va boshqa tarmoqlar 2299,1 ming nafarni va 16,7%ni tashkil etgan. Bundan tashqari iqtisodiyotning moliyaviy va sug'urta faoliyati, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, professional, ilmiy va texnik faoliyat, san'at, ko'ngil ochish va dam olish kabi tarmoqlarida ish bilan bandlarning ulushi jami ish bilan bandlar tarkibida 1,0%dan kam bo'lgan. Ushbu tarmoqda ish bilan bandlar ulushi 2017-yildan 2022-yilga qadar 1,0%dan oshmagan.

1-jadval

Mehnat bilan band bo'lgan aholi soni to'g'risida ma'lumot¹


(ming kishi)

Iqtisodiyot tarmoqlari	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2022-yilda 2017-yilga nisbatan
							+/-
Jami bandlar	13520,3	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	13737,3	217,0
<i>Iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik:</i>							
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 671,3	3 537,2	3 544,6	3 499,2	3414,7	3429,6	-241,7
sanoat	1 826,8	1 802,9	1 821,5	1 809,5	1863,2	1823,0	-3,8
qurilish	1 290,0	1 205,5	1 324,6	1 305,6	1350,8	1325,9	35,9
ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	1 480,2	1 401,8	1 436,4	1 405,4	1535,6	1543,5	63,3
tashish va saqlash	654,9	645,2	646,1	610,5	654,2	635,4	-19,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	313,3	301,9	315,3	302,8	341,1	351,3	38,0
axborot va aloqa	64,3	62,7	62,2	58,7	70,5	79,0	14,7
moliyaviy va sug'urta faoliyati	72,0	73,5	75,8	72,5	70,4	70,9	-1,1
ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	69,3	66,7	62,4	53,4	63,2	62,8	-6,5
professional, ilmiy va texnik faoliyat	140,9	141,5	140,9	131,6	138,0	137,6	-3,3
ta'lim	1 106,6	1 111,7	1 134,4	1 158,2	1220,5	1244,6	138,0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	602,6	604,0	616,7	669,5	650,8	663,6	61,0
san'at, ko'ngil ochish va dam	65,3	65,6	66,0	67,0	70,2	71,0	5,7

¹ O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

olish							
boshqalar	2 162,8	2 252,9	2 294,2	2 092,5	2095,7	2299,1	136,3

Yuqoridagi 1-jadvalni dinamik ko‘rinishda 2022-yildagi bandlar ulushini barcha tarmoqlar ulushida ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. 2022-yilda ish bilan bandlarning faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi²

1-rasm ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin-ki, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ish bilan bandlarning ulushi yuqori hisoblanadi.

Ish bilan bandlik darajasining oshishi barcha ko'rsatkichlar o'sishiga olib keladi. Iqtisodiyotning o'sishi, aholi turmush tarzi va daromadlariga salbiy ta'sir qiluvchi omil mavjud bo'lib, ulardan biri ishsizlikdir.

Ishsizlar iqtisodiy faol, mehnat qilishga layoqatli va mehnat qilishni xohlaydigan aholi muayyan qismining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda ish bilan band bo'lmasligi asosida yuzaga keladi. Bu holat aholining daromadsiz qolishi, turmush tarzining pasayishi va oqibatda qambag'allikka olib keladi. Shu sababli ishsizlar sonini aniqlash, ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini viloyat va shaharlar kesimida chuqur tahlil qilish lozim (2-jadval).


² O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

2-jadval

**Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholi soni
to'g'risida ma'lumot**
(ming kishi)

Hududlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yilda 2017 yilga nisbatan +/-
O'zbekiston Respublikasi	837,0	1 368,6	1 335,3	1 561,0	1 441,8	1 334,0	497,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	41,6	74,3	70,9	82,6	78,9	72,5	30,9
viloyatlar:							
Andijon	84,9	134,8	129,4	150,6	138,8	130,8	45,9
Buxoro	48,1	77,6	78,3	93,9	84,9	76,2	28,1
Jizzax	24,4	52,8	54,1	65,8	61,9	56,5	32,1
Qashqadaryo	78,6	131,3	125,3	146,9	137,0	124,0	45,4
Navoiy	23,3	38,6	38,2	41,5	39,8	36,2	12,9
Namangan	64,1	111,1	110,1	128,5	119,3	108,0	43,9
Samarqand	106,7	157,3	148,4	174,6	158,4	153,4	46,7
Surxandaryo	71,0	105,3	104,6	122,8	113,9	102,3	31,3
Sirdaryo	18,8	36,5	35,8	41,2	38,0	34,8	16,0
Toshkent	71,3	122,1	120,6	138,6	126,5	116,9	45,6
Farg'ona	104,8	155,6	152,2	177,1	165,5	153,6	48,8
Xorazm	44,0	74,2	73,5	88,1	80,0	73,8	29,8
Toshkent sh.	55,4	97,1	93,9	108,8	98,9	95,0	39,6

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2017-yilda ishga joylashishga muhtoj aholi soni 837,0 ming nafarni tashkil etgan. 2022-yilga kelib 2017-yilga nisbatan ishga muhtojlar soni 497,0 nafarga yoki 59%ga oshgan. Lekin ba'zi yillarda mehnat bilan band bo'lmaganlar soni o'tgan yillarga nisbatan kam bo'lgan. (2-rasm)



**2-rasm. Ishga joylashtirishga muhtoj aholi soni dinamikasi³
(ming kishi)**

Yuqoridagi chizma ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin-ki, 2019, 2021 va 2022-yillarda ishga muhtojlar soni kamaygan. Qolgan yillarda esa aholi soni o'sishi va ish o'rinlariga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda ishga muhtojlar soni oshib borgan.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytish mumkin-ki, 2018 va 2020-yillarda ishsizlar soni oshgan bo'lsa-da, 2019 va 2021, 2022-yillarda ishsizlar soni kamaygan. Ish bilan bandlikning eng yuqori ulushi Qishloq xo'jaligi va ulgurji savdoga to'g'ri kelgan. Respublikada jami ish bilan bandlar soni 2017-yilda 13520,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa 2022-yilga kelib bu holat 13737,3 ming nafarni tashkil etgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- qishloq xo'jaligida ish bilan bandlar soni yuqori ekanligini inobatga olib har bir tuman kesimida konsalting va agrokonsalting xizmatlarini joriy etish lozim. Konsalting xizmatlari korxona va tashkilotlarning doimiy daromad topib barqaror faoliyat yuritishi uchun professional maslahat bera oladi va natijada ish o'rinlari soni oshadi;
- hududlarda aholi uchun barqaror faoliyat yuritadigan davlat xususiy sherikchiligi asosidagi korxona va tashkilotlar sonini oshirish lozim;
- investitsiyalarni jalb qilgan holda har bir tuman kesimida barqaror faoliyat yuritadigan va doimiy faol korxona va tashkilotlarni barpo etish lozim;
- korxona va tashkilotlar nafaolligini oldini olish maqsadida ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Q.Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot/Darslik. – T.: “FAN”, 2019. –B. 365.
2. Экономика и социология труда. Теория и практика: учебник для бакалавров / под ред. В. М. Масловой. – М. : Издательство «Юрайт», 2015. – 539 с
3. С.Қурбонов. Унумли бандлик тақчиллиги даражасини баҳолашнинг камбағалликни қисқартиришдаги зарурати // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №2(10) 2023, 125-135 бетлар
4. Herman, E. (2014) Working poverty in the European Union and its main determinants: An empirical analysis. Inz. Ekon. 2014, 25, 427–436.
5. www.stat.uz – O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

³ O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari